

**SAVDODA SOTILGAN TOVARLAR TANNARXINI HISOBINING
USLUBIY MASALALARI**

*Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti «Moliyaviy boshqaruv
va axborot texnologiyalari» kafedrasida o'qituvchisi*

***Umarov Javoxir Baxodir o'g'li**, Toshkent, O'zbekiston*

Email: umaroffdj@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdoda sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash uslubiyoti keltirilgan, 9120-schyot "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyotining tarkibiy tuzilishi asoslangan.

Kalitli sozlar: Tovar, sotilgan tovarlarning tannarxi, zaxiralarning xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi

**METHODOLOGICAL ISSUES OF CALCULATING THE COST OF
GOODS SOLD IN TRADE**

*Teacher of the Department of "Financial Management and Information Technologies" of Tashkent University of Economics and Technology **Umarov Javakhir Bakhodir oglu**, Tashkent, Uzbekistan*

Email: umaroffdj@gmail.com

Annotation: This article presents a methodology for determining the cost of goods sold in trade, based on the structural structure of account 9120 "Cost of goods sold".

Keywords: goods, cost of goods sold, cost of purchase and preparation and storage of inventories

Bugungi kunda savdoda sotilgan tovarlar tannarxini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Hisobot davrining oxirida savdo korxonalarida sotilgan tovarlarning tannarxi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Sotilgan tovarlarning tannarxi (STT)} = \text{Tovar zaxiralarining boshlang'ich qoldig'i (T3}_0\text{)} + \text{zaxiralarning xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi (XTST)} - \text{Tovar zaxiralarining oxirgi qoldig'i (T3}_1\text{)}$$

Ushbu aniqlangan summaga quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

D-t 9910 "Yakuniy moliyaviy natijalar" ...sotilgan tovarlar tannarxi

K-t 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi"sotilgan tovarlar tannarxi

Asos: Hisobot davri oxirida inventarizasiya yo'li bilan aniqlangan tovar qoldig'i summasi

Demak, xulosa qilish mumkinki, davriy zaxiralar tizimida zaxiralar schyoti xaridlar tannarxi schyoti bilan bog'lanmaydi. Uning inventarizasiya yo'li bilan aniqlangan boshlang'ich qoldig'i hisobdan chiqariladi va inventarizasiya yo'li bilan aniqlangan oxirgi qoldiq tiklanadi. Shu bois, mazkur schyotning kreditida boshlang'ich qoldiq hisobdan chiqarilsa, debetida oxirgi qoldiq tiklanadi.

Yuqoridagi uslubiy tavsiyalar va taklif etilgan buxgalteriya yozuvlari asosida savdo-tijorat korxonalarida 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi" schyoti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Savdo korxonasida davriy zaxiralar tizimida 9120-schyot "Sotilgan tovarlarning tannarxi" schyotining tarkibiy tuzilishi

Debet	Korrs chyot	Summa	Kredit	Korrs chyot	Summa
Oy boshidagi saldosi		-			
Boshlang'ich qoldiq hisobdan chiqarildi	2910	80 400 500	Oxirgi qoldiq tiklanganda	2910	68 345 500

Zaxiralarning xarid va tayyorlov-saqlash tannarxi	1810	1 250 448 000	Sotilgan tovarlar tannarxi yakuniy moliyaviy natijalar schyotiga o'tkazildi (80400500+1250448000-68345500)	9910	1 262 503 000
Debet oborot		1 330 848 500	Kredit oborot		1 330 848 500
Oy oxiridagi saldosi		-			

Savdo korxonalarida sotilgan tovarlarning tannarxi yakuniy moliyaviy natijalar schyotiga o'tkazish bilan yakunlanadi.

Davriy zaxiralar tizimining afzallik jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi.

1. zaxiralarning kirimi va chiqimiga oid yozuvlar talab etilmaydi;
2. zaxiralarning xaridiga oid ma'lumotlarni alohida schyotda olish imkoniyati tug'iladi;
3. buxgalteriya yozuvlari sonini kamaytirishga yerishish mumkin, hisob-kitob ishlari soddalashtirilgan;
4. sotilgan zaxiralar tannarxini hisoblashning qulayligi.

Ushbu tizim ayrim kamchiliklarga ham ega. Jumladan:

1. Inventarizatsiya o'tkazmaguncha zaxiralar qoldig'ini aniqlash, ya'ni zaxirlar qoldig'i to'g'risida ma'lumotlarni har bir vaqt momentida olishning imkonining yo'qligi;
2. Hisobot davri davomida zaxiralarning o'g'irlanish bo'lmasligi, noqonuniy foydalanish holatlari bo'lmasligi ta'minlash bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirish.
3. Barcha korxonalarda ham qo'llashning imkoni yo'qligi.

Ushbu uslubiy tartib qoidalarning amaliyotda qo'llanilishi zaxiralar tannarxini to'g'ri aniqlash va oqibatda moliyaviy natijalarni to'g'ri hisoblash,

zaxiralarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida hisobga olishga imkon beradi hamda axborotlarning ishonchligi va ob'ektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. 2016 йил 13 апрель, № ЎРҚ-404. <https://lex.uz/acts/2931253>.
2. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. <http://finansist.uz/uz/moliyaviy-hisobotning-xalqaro-standartlari-ozbekistonda-qollanilishi/> 2018 й.
3. S.Tashnazarov. Moliyaviy Buxgalteriya hisobi 1 [Matn]: darslik/SamISI – Samarqand.: “STEP – SEL” MChJ nashriyoti, 2023 -580 bet.
4. Колонов М.Б. Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш (автотранспорт корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент.: ТМИ, 2019 й.